

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT BOZORINING STATISTIK TAHLILI

*TDIU, Iqtisodiy statistika kafedrası dotsenti*

**Akbarova Barno Shuxratovna**

*[b.akbarova@tsue.uz](mailto:b.akbarova@tsue.uz)*

*TDIU, Statistika yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

**Mirzadavlatov Azizbek Ulug'bek o'g'li**

*E-mail: [azizbekmirzadavlatov1011@gmail.com](mailto:azizbekmirzadavlatov1011@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mehnat bozorining statistik tahlili asosida ishsizlik va bandlik ko‘rsatkichlarining zamonaviy tendensiyalari o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy o‘zgarishlar, global va milliy miqyosdagi omillar hamda ularning mehnat bozoriga ta’siri statistik usullar yordamida chuqur tahlil qilingan. Mualliflar ishsizlik va bandlik ko‘rsatkichlarining dinamikasini aniqlash, shuningdek, iqtisodiy siyosat va rejalashtirish jarayonida ushbu ko‘rsatkichlarning ahamiyatini baholashga yo‘naltirilgan eksperimental va empirik metodlardan foydalanganlar.

Tadqiqot natijalari asosida ishsizlikning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri, bandlik darajasining o‘sishi yoki pasayishiga olib keladigan omillar va ularning iqtisodiy tizimga ta’siri chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda olingan ma’lumotlar va xulosalar iqtisodiy siyosatni shakllantirish, mehnat bozorining barqarorligini ta’minlash va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan. Maqola yakunida kelajakda ushbu sohada olib boriladigan tadqiqotlarning rivojlanish yo‘nalishlari va yangi statistik metodlarni qo‘llash imkoniyatlari muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Iqtisodiy o‘zgarishlar, global omillar, ishsizlik, bandlik, o‘zgarish dinamikasi.

**Аннотация:** В данной статье на основе статистического анализа рынка труда изучены современные тенденции показателей безработицы и занятости. В процессе исследования глубоко проанализировано влияние экономических изменений, глобальных и национальных факторов на рынок труда с использованием статистических методов. Авторы применили экспериментальные и эмпирические методы, направленные на определение динамики показателей безработицы и занятости, а также на оценку их значимости в процессе экономической политики и планирования.

На основе результатов исследования проведен глубокий анализ влияния безработицы на экономическое развитие, факторов, приводящих к росту или снижению уровня занятости, и их воздействия на экономическую систему. Полученные данные и выводы подчеркивают важность формирования экономической политики, обеспечения стабильности рынка труда и решения социально-экономических проблем. В заключение статьи обсуждаются направления развития будущих исследований в этой области и возможности применения новых статистических методов.

**Ключевые слова:** Экономические изменения, глобальные факторы, безработица, занятость, динамика изменений.

**Abstract:** This article examines modern trends in unemployment and employment indicators based on a statistical analysis of the labor market. During the research process, the impact of economic changes, global and national factors on the labor market was thoroughly analyzed using statistical methods. The authors employed experimental and empirical methods aimed at identifying the dynamics of unemployment and employment indicators, as well as assessing their significance in the process of economic policy and planning.

Based on the research results, a deep analysis was conducted on the impact of unemployment on economic development, factors leading to an increase or decrease in employment levels, and their effects on the economic system. The obtained data and

conclusions emphasize the importance of shaping economic policy, ensuring labor market stability, and addressing socio-economic issues. In conclusion, the article discusses future research directions in this field and the possibilities of applying new statistical methods.

**Keywords:** Economic changes, global factors, unemployment, employment, dynamics of change.

## **Kirish**

Hozirgi zamonada mehnat bozorining statistik tahlili iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda katta ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyoti global tendensiyalar, texnologik yangilanishlar va iqtisodiy siyosatning doimiy o‘zgaruvchanligi sharoitida rivojlanayotgan bir vaqtda, ishsizlik va bandlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Ushbu maqola mehnat bozorida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni statistik usullar asosida tahlil qilishni maqsad qilgan bo‘lib, ishsizlik va bandlik ko‘rsatkichlarining zamonaviy tendensiyalarini aniqlash va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini baholashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida empirik ma‘lumotlar, zamonaviy statistik modellar va analitik usullardan foydalanilib, mehnat bozorining murakkab tuzilishi va uning asosiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar ochib beriladi.

Vazirlar Mahkamasi mehnat bozori siyosatini yanada mustahkamlash, yoshlar bandligini ta‘minlash va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga qaratilgan qarorlar qabul qilmoqda. Ayniqsa, innovatsion iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar asosida yangi bandlik imkoniyatlarini yaratish, malakani oshirish va kasb-hunar ta‘lim dasturlarini qo‘llab-quvvatlash ushbu qarorlarda asosiy o‘rin tutadi.

Maqolaning birinchi qismida mehnat bozorining nazariy asoslari, ishsizlik va bandlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni o‘lchash usullari ko‘rib chiqiladi. Keyingi bo‘limlarda esa tadqiqot natijalari asosida mamlakat iqtisodiy siyosatini shakllantirish va mehnat bozorining barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot nafaqat mavjud holatni tahlil qilish,

balki kelajakda ushbu sohada amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ilmiy va amaliy ishlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yaratilganligi ta’kidlanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Quyida mehnat bozori statistik tahlili mavzusiga oid adabiyotlar va ularning to‘liq sharhlari keltirilgan. Ushbu manbalar orqali mavzuni chuqurroq o‘rganish va tadqiqot olib borish mumkin:

A.Karimov, B. Tursunovlarning “ *Iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida mehnat bozorining dinamikasi*” deb nomlangan tadqiqot ishida O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar va ularning mehnat bozoriga ta’siri tahlil qilingan. Mualliflar ishsizlik darajasining o‘zgarishi, bandlikning tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi va mehnat bozoridagi muvozanatni shakllantiruvchi omillarni o‘rganishgan. Tadqiqot natijalari asosida iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

B.Mirzaahmedov “*Ishsizlik va bandlikni o‘lchash metodologiyasi*” tadqiqot ishida ishsizlik va bandlikni o‘lchashning zamonaviy metodlari, jumladan, xalqaro standartlar va O‘zbekistonda qo‘llaniladigan usullar ko‘rib chiqilgan. Muallif ishsizlikning iqtisodiy o‘lishga ta’siri va bandlikni oshirish yo‘llarini empirik misollar asosida tahlil qilgan.

K. Rustamov tadqiqotda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar ta’sirida mehnat bozoridagi o‘zgarishlar tahlil qilingan. Muallif raqamli iqtisodiyotning yangi bandlik imkoniyatlarini yaratishdagi roli va ishsizlikni kamaytirishdagi ahamiyatini ko‘rsatgan. Tadqiqotda O‘zbekiston uchun raqamli transformatsiyaning afzalliklari va qiyinchiliklari haqida xulosalar keltirilgan.


Sultonov S. tadqiqotida ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar va strategiyalar tahlil qilingan. Muallif O‘zbekistonda ishsizlikni kamaytirish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan innovatsion yondashuvlar va xalqaro tajribalarni ko‘rib chiqqan. Tadqiqot natijalari asosida mehnat bozorini barqarorlashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Global kontekstda, Davlatlararo Statistik Tahlil Jurnal (2023) nashr etilgan maqolalar mehnat bozorining xalqaro tendensiyalari va mamlakatlararo o‘zaro bog‘liqliklarni ko‘rsatib, mahalliy holatlarni yanada kengroq kontekstda tahlil qilish zarurligini isbotlaydi. Ushbu adabiyotlar tahlili ishsizlik va bandlik ko‘rsatkichlarining nafaqat milliy, balki global iqtisodiy jarayonlardagi o‘rnini ham aniqlashga imkon yaratadi.

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanilgan. Tadqiqotning ilmiy tahlili jarayonida tadqiqot dizayni va manbalar tanlash, empirik va analitik yondashuvlar, shuningdek, ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishning zamonaviy usullari qo‘llanilgan.


### Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda mehnat bozori ko‘rsatkichlari sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Quyida 2022-yildan 2024-yilning noyabr oyigacha bo‘lgan davrda ishsizlik darajasi va bandlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi.



#### 1-rasm. Ishsizlik darajasi (2022-2024- yillar ko‘rsatkichi)

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2022-yildan 2024-yilning noyabr oyigacha ishsizlik darajasi izchil kamayib, 9,3% dan 5,8% gacha pasaygan. Bu davr mobaynida ishsizlik darajasi umumiy hisobda 3,5% punktga qisqargan.



## 2-rasm. O‘zbekiston mehnat bozori prognoz ko‘rsatkichlari (2020-2030)

O‘zbekiston Respublikasida 2020–2030-yillar davomida aholi soni 34,531,3 ming kishidan 40,905,3 ming kishiga (+18,5%) o‘shishi kutilmoqda. Shu bilan birga, mehnat resurslari 19,388 ming kishidan 23,633,8 ming kishiga (+21,9%) yetishi prognoz qilinmoqda. Ish bilan band aholi soni esa 13,239,6 ming kishidan 15,365,1 ming kishiga (+16%) oshishi kutilmoqda.

2020-yilda norasmiy bandlik darajasi 5,668,9 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilda bu ko‘rsatkich 3,394,2 ming kishiga tushishi (-40,1%) kutilmoqda. Bu norasmiy sektorning sezilarli darajada qisqarishini ko‘rsatadi. Biroq, mehnat resurslarining tez sur‘atlar bilan o‘shishi yangi ish o‘rinlarini yaratish zaruratini yanada oshirmoqda.

Shu sababli, yangi ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va kasb-hunar ta‘limini rivojlantirish kabi chora-tadbirlar ishsizlikni kamaytirish va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish uchun asosiy omillar hisoblanadi.

### Xulosa va takliflar

O‘zbekiston Respublikasida mehnat bozori dinamik rivojlanish jarayonida bo‘lib, aholi sonining o‘shishi va iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar ta‘sirida bandlik va ishsizlik darajalarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. 2020–2030-yillar davomida

aholining umumiy soni 34,531,3 ming kishidan 40,905,3 ming kishiga (+18,5%) yetishi kutilmoqda. Shu bilan birga, mehnat resurslari 19,388 ming kishidan 23,633,8 ming kishiga (+21,9%) oshishi prognoz qilinmoqda, bu esa ish o‘rinlariga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshiradi.

Ish bilan band aholi soni 2020-yilda 13,239,6 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilga kelib 15,365,1 ming kishiga yetishi (+16%) kutilmoqda. Biroq, mehnat resurslarining o‘shish sur‘ati bandlikning o‘shish sur‘atidan yuqori bo‘lib, bu ishsizlik muammosiga alohida e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Norasmiy bandlik darajasi 2020-yilda 5,668,9 ming kishi bo‘lib, 2030-yilga kelib 3,394,2 ming kishiga tushishi (-40,1%) kutilmoqda, bu esa iqtisodiyotda rasmiy ish o‘rinlarining ortishini aks ettiradi.

Mehnat bozorining barqaror rivojlanishini ta‘minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Yangi ish o‘rinlarini yaratish – sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi sohalarida investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali bandlik imkoniyatlarini kengaytirish.
2. Tadbirkorlikni rivojlantirish – kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, startaplarga imtiyozlar berish va davlat tomonidan subsidiyalar ajratish.
3. Mehnat bozoriga mos ta‘lim tizimi – kasb-hunar ta‘limi va oliy o‘quv yurtlarida amaliy ko‘nikmalarga urg‘u berish, yangi texnologiyalar va zamonaviy kasblarni o‘qitish.
4. Norasmiy bandlikni kamaytirish – ish beruvchilarni rasmiy ishga qabul qilishga rag‘batlantirish va ishchilarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.
5. Mehnat migratsiyasini tartibga solish – xorijda ishlayotgan fuqarolar uchun huquqiy va moliyaviy himoya mexanizmlarini mustahkamlash, qaytib kelgan mehnat migrantlarini ish bilan ta‘minlash dasturlarini joriy etish.
6. Hududiy bandlik siyosatini takomillashtirish – chekka hududlarda infratuzilmani rivojlantirish va ish o‘rinlarini yaratish orqali ichki migratsiyani tartibga solish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish mehnat bozorida barqaror rivojlanishni ta‘minlashga, ishsizlik darajasini pasaytirishga va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.  
<https://stat.uz/uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori "Bandlikni ta'minlash va mehnat bozorini rivojlantirish bo'yicha 2023-2025-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi.  
<https://lex.uz/uz>
3. Jahon banki O'zbekistonda mehnat bozori va iqtisodiy faollik: tahlil va prognozlar
5. Karimov A., Tursunov B. Iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida mehnat bozorining dinamikasi// O'zbekiston Iqtisodiyot va Statistika Jurnal, 2018-yil, 4-son.
6. B.Mirzaahmedov "*Ishsizlik va bandlikni o'lchash metodologiyasi*// Toshkent Iqtisodiyot Universiteti Ilmiy Axborotnomasi, 2019-yil, 3-son
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi (2020). Mehnat bozori statistikasi.
8. Rustamov K. Raqamli transformatsiya va mehnat bozoridagi o'zgarishlar.// Manba: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Iqtisodiyot Instituti, 2021-yil.
9. Sul'tonov S. Ishsizlikni kamaytirish strategiyalari.//Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Ilmiy Axborotnomasi, 2022-yil, 2-son.
10. Davlatlararo Statistika Tahlil Jurnal (2023). Mehnat bozorining global tendensiyalari.
11. 10.Karimov S & Jo'rayev M (2022) O'zbekiston Respublikasi Mehnat bozori va ishsizlik: muammolar va yechimlar "Fan" nashriyoti